



## CHORVACHILIK SOHASINI JADAL RIVOJLANTIRISH CHORA TADBIRLARI KELGUSIDA RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI

**1. Tursnov Xayrullo Sharofiddinovich**

**2. Eshdavlatov Orif Zokirovich**

**3. Raxmatova Sayyora Komiljon qizi**

(*Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va  
biotexnologiyalari universiteti Toshkent filiali dotsentlari*)

### Kirish

Chorvachilik tarmoqlarini jadal rivojlantirishning yana muhim omillaridan biri ularni ixtisoslashtirish, konsentratsiyalash (yiriklashtirish) va intensivlashtirishdan iborat. Buning uchun mustahkam va barqaror yem-xashak bazasi yaratish va yem-xashakdan unumli foydalanish, isrofgarchilikka yo‘l qo‘ymaslik, ularning to‘yimliligin va sifatini oshirish, ayniqsa tarkibidagi oqsil miqdorini ko‘paytirish, sun’iy usulda vitaminlar, aminokislotalar, mikroelementlar, antibiotiklar va o‘siruvchi moddalar ishlab chiqarishni rivojlantirish talab etiladi. Shu bilan birga omuxta yem, donador va briket oziqa tayyorlash ishlarini jadallashtirish muhim ahamiyatga ega. Barcha turdagи chorva mollari va parrandalar uchun juda muhim hisoblangan dag‘al va sersuv oziqalar (beda pichani, senaj, silos, makkajo‘xori, oqjo‘xori, xashakli lavlagi, oziqabop poliz ekinlari) ni yanada ko‘proq yetishtirish, mavjud yaylovlardan unumli foydalanish, ularning hosildorligini oshirish va sug‘oriladigan, madaniy yaylovlар tashkil etish shular jumlasidandir.

Chorvachilikni intensivlashtirish ko‘p jihatdan chorva mollari va parrandalar mahsuldarligiga bog‘liqligi uchun avvalo naslchilik va seleksiya ishlarini jadallashtirish, yangi sermahsulot zot va gruppalar yaratish, mavjud zotlarni takomillashtirish, duragaylash ishlarini kengaytirish, sanoat asosida chatishdirish tadbirlarini jiddiylashtirish muhim vazifalardan hisoblanadi. Bu borada naslchilik



ishlari bilan shug‘ullanadigan barcha tuman, viloyat va respublika tashkilotlari jonbozlik ko‘rsatishlari va qat’iy nazorat qilishlari lozim.

Chorvachilikni jadal rivojlantirish ko‘p jihatdan fan yangiliklari, amaliyot, ilg‘orlar tajribasi, yangi texnika va texnologiyaga bog‘lik. Fan yangiliklari, ishlab chiqarish tarmoqlari progressiv usulda mahsulot yetishtirishida asosiy yo‘llanmadir.

Yem-xashak bazasini yanada mustahkamlash, chorva mollari va parrandalarni har xil servitamin oqsillar aminokislotalarga boy oziqalar bilan yil mobaynida uzluksiz ta’minlash bu tarmoqni jadal rivojlantirishning asosiy vazifalaridan hisoblanadi.

G‘allachilik, mevachilik, sabzavotchilik, paxtachilik va bog‘dorchilik kabi sohalarni rivojlanishi chorvachilikni ravnaq topishi uchun ijobiy ahamiyatga ega. Chunki g‘allachilikda yetishtiriladigan don mahsulotlari va g‘alla ekinlari poyasi chorva mollari uchun qimmatli ozuqa hisoblanadi. Mevachilik va sabzavotchilik chiqindilari har xil hayvonlar uchun sersuv va servitamin ozuqa sifatida foydalaniлади. Paxtachilikda chigit kunjarasi, shulxa, g‘o‘zapoya kabilar chorva mollari uchun to‘yimli oziqa hisoblanadi.

Hozirgi vaqtda chorvachilik eng sertarmoq sohalardan biri hisobalanadi. Uning asosiy tarmoqlari: koramolchilik, qo‘ychilik, qorako‘lchilik, echkichilik, parrandachilik, yilqilchilik, tuyachilik, quyonchilik, asalarichilik, ipakchilik bo‘lsa, so‘nggi yillarda uning tarkibi yangi tarmoqlar: mo‘ynabop hayvon turlari, ko‘l baliqchiligi bilan boyitilmoqda.

Chorvachilik yil sayin kengayib, boyib bormoqda va kamolot yo‘liga o‘tmoxda. Binobarin, zooinjenerlik kasbi xalq xo‘jaligidagi muhim, hayotiy ahamiyatga ega bo‘lgan mutaxassislik bo‘lib bormoqda va bu borada barcha biologiya fanlari qatori, qishloq xo‘jaligi, texnologiya, injenerlik va iqtisod fanlarining ham tutgan o‘rni salmoqli va beqiyosdir.

Chorva mollari va parrandalarni to‘g‘ri boqish ularning o‘sishi va rivojlanishini jadallashtirishda hamda mahsuldarligini keskin oshirish muhim ahamiyatga ega.



Kimyoviy tarkibiga ko‘ra to‘la qimmatli va to‘yimli oziqalar bilan boqish xayvonlarni *to‘g‘ri oziqlantirish* deyiladi. Fiziologik jixatdan to‘la qimmatli deganda, hayvonlarning fiziologik holati (bo‘g‘ozligi, sog‘in davri, sutdan chiqarilganligi, ma’lum maqsad asosida boqilishi va hokazolar) ga ko‘ra va ularning yoshi, vazni, jinsi, mahsuldorlik darajasini hisobga olgan holda oziqa miqdoriga bo‘lgan extiyojini to‘la ta’minalash tushuniladi. Agar mollar sifatsiz ozuqa bilan noto‘g‘ri boqilsa, ularning mahsuldorligi pasayib ketadi, sog‘ligi yomonlashadi, yosh mollar o‘sish va rivojlanishdan to‘xtaydi.

Hayvon organizmining ozuqa moddalarga bo‘lgan talabini qondirish uchun sarflanadigan yem-xashak miqdori, *oziq normasi* deyiladi. *Ratsion* oziqa normasi asosida hayvonlarga bir sutkada beriladigan yem-xashak miqdoridir. Ratsion xayvon organizmining ozuqa moddalarga bo‘lgan ehtiyojini qondiradigan va mahsuldorligini oshirishga fiziologik holatini yaxshilashga qaratilgan bo‘lishi kerak.

**Xulosa.** Chorvachilik sohasini yanada rivojlantirish maqsadida tannarxi arzon ozuqa ishlab chiqarish va sohani yanada ravnaq topishi uchun, sohani iqtisodiy samaradorligini oshirish maqsadida zamonaviy innovatsoin texnologiyalarni qo‘llash maqsadga muvofiqdir.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1. “Qorako‘lchilik sohasini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 14 martdagi PQ-3603-son qarori
2. “Qorako‘lchilik tarmog‘ini kompleks rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 16 avgustdagi PQ-4420-son qarori
3. Bobokulov N.A., Popova V.V. va boshqalar. O‘zbekistonning sahro yaylovlari chorvachiligi va yem-xashak resuslaridan oqilona foydalanish. Toshkent-2015
4. S.Y.Yusupov , S.B.Sattorov, S.R.Bazarov. Qorako‘lchilik mahsulotlarini yetishtirish texnologiyasi. SAMARQAND -2015.
5. M.E. Ashirov Qoramollarni urchitish va seleksiya asoslari.



Toshkent-2019

6. Кедрова С.И. Кормление каракулских овец. Москва-1961.